



SAMARQAND TARIXIY SHAHAR UY LARINI QAYTA JONLANTIRISHDA HUDUDNI KOMPOZITSION TAKOMILLASHTIRISH

201 –BI va Arx guruhi magistranti : Abdunabiyeva Nigina S

Annotatsiya. Samarqandning turistik salohiyatini yanada rivojlantirish, tarixiy uylar muhitini takomillashtirish har tomonlama manfaatli ishlardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada Samarqandning tarixiy shahar qismidagi uylar arxitekturasini rivojlantirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: namozgohtepa, yodgorlik, eneolit, sopollitepa, janbos-qal'a, avesto, vara, me'morchilik, hovli, bukchon, muzey

Turarjoy me'morchiligida hovlilar paydo bo'lishini ko'p olimlar Dehqonchilik rivojlangan davrda, ya'ni eneolit davri (miloddan avvalgi VI-IV ming yilliklar) da vujudga kelganligini bayon etishgan. Hovlining paydo bo'lishining asosiy sabablaridan O'rta Osiyodagi issiq iqlim sharoiti bilan bog'ligi. Misol tariqasida - Namozgohtepa olimlar buni eneolit davridagi yodgorliklarning sifatida kabul qilganlar.

Ilk eneolit yodgorliklaridan Anau 1-a inshooti xom g'ishtdan qilingan bir va ko'p xonali uylardan iborat. Eneolit davri imoratsozligi ilk eneolit davrida uylar bir xonali bo'lganligini Manjuluktepa, Dashtlijitepa, kichik oila yashagan. Uylarning o'ntachasini birlashtirib kompleks xosil bo'lgan. Kechki eneolit davrida markazlar shakllangan bulardan Namozgohtepa va Oltintepa. Bunday uy massivlari har bir uy uchun xujalik hovlisi umumiy bo'lgan, oshxonaga, bugdoy saklash xonasi, umumiy ibodatxonaga ega bulgan. Bunday uy katta oilali yashash joyi yoki kichik oilalardan tuzilgan. Namozgohtepa ilk xovlilar namoyon bulishi, xovlilarning kelib chikishi, taraqqiy etishi uchun asos bo'lgan. Insonlar istiqomat qiluvchi maskan hovli eneolit davrida paydo bo'lgan.



Bronza davriga kelib (m.a II mingyillik o'rtalarida) yangi tarmoklar dexkonchilik va chorvachilik shakllandi .Bu davrga kelib uylarning sektsiyali tipi vujudga keldi. Bu davrda kichik qishloklar shakllandi, tarxi turtburchakli yoki yumalok, tashki qismi devorlar bilan o'ralgan. O'zbekiston hududining janubida joylashgan Sopollitepa va Kuchuktepa misol bo'ladi. Sopollitepaning dastlab uch kator kilib mustaxkam o'rab oluvchi devorlari kurilgan Sopollitepadagi 1,2,3 xonali uylardan tashkil topgan, uylarda mo'ri, bugdoy yanchuvchi tegirmon va katta xumlar bo'lgan. Agar turarjoy kompleksi 2 yoki 3 xonadan tashkil topgan bo'lsa, unda bittasi turarjoy, ikkinchisi xujalik, uchinchisi ishlab chikarish xonasi vazifasini bajargan. (1-rasm)

Xorazmdagi Janbos-Qal'a qal'asida olib borilgan qazishmalar Kushonlar davrida (miloddan avvalgi 2-asr - miloddan avvalgi 1-asrlar) qishloq qabila jamoalarini tashkil etishning arxaik xususiyatlari mavjudligini ko'rsatdi, ularning turar joylari mustahkam qishloqlar bo'lgan va ehtimol shunday bo'lgan " shaharlar" manbalarida qayd etilgan. Ushbu aholi punktlarining joylashuvi o'ziga xos bo'lib, bu erda aholi punkti maydoni keng ko'cha bilan kesib o'tgan. Jonboz qal'adagi uylar loyli (paxsa va xom g'isht) bilan qurilgan. Qal'aning maydoni 200x170 metr o'lchamni tashkil qiladi. Qal'a balandligi 10-11 metrlik xom g'ishtdan qilingan devor bilan o'ralgan. (2-rasm)

O'rta Osiyo me'morchilik inshootlaridan biri bu turar joy uylari. Insonlarning yillar davomida rivojlanib kelishining namunasini turarjoylarda ko'rish mumkin. O'rta Osiyoda iqlim, sharoitlariga hovli katta ahamiyatga ega. Yashash uchun mo'ljallangan imoratlar uy emas hovli deb aytilishi bejizga emas. Xalqning turar-joy qurish uslubi ko'p ming yillik madaniy rivojlanish mahsuli bo'lib juda ham rang-barang me'moriy an'analarni o'zida mujassam etgan.



An'anaviy uylarda me'moriy qurilish an'alarini, ma'ishiy va badiiy vositalarini, hayot kechirish tarzini, avlodlar boy tajribalarini o'zida mujassam etgan. Xalq me'morchiligi o'zining tabiiy-iqlimiy sharoitlaridan, madaniyatidan, milliy maishiy an'analardan va qurilish ashyolaridan kelib chiqqan holda rivojlangan. An'anaviy xalq uylarining o'ziga xosligi shundaki, birinchidan yuqori radiatsiyali quyosh nurlaridan himoya qilinsa, ikkinchidan issiq shamollaridan himoya qiladi bunday sharoit yashovchilarga qulaylikni ta'minlaydi.

Barcha asosiy xonalar bir qatorli tartibga ega edi. Turar-joy majmuasi keng tarqalgan bo'lib, ikki hovli atrofida to'plangan-ichki (ichkari, darun) va tashqi (tashkari, berun).[5]

Turar joy uylarining qismlarga bo'lganda, tashqari va ichkari qismlarga ega aholi tilida "darun", "berun" deb aytiladi. Hovlining tashqari qismida mehmonxona, omborxona, otxona bo'lgan va mehmonlar shu berun qismida qabul qilingan bundan tashqari, nonvoylik, kulolchilik, hunarmandchilikning ko'plab turi bilan shug'ullanishgan. Hovli ko'cha changidan holi joy, ayvonning salqin soyasi, tokzorning yashilligi, tozalik va qulaylik, nafis fazoviy kombinatsiya o'ziga jalb qiladi. Hovlining darun qismida oila hayot kechirishiga mo'ljallangan. Ichkari hovlida omborxona, oshxona, turarjoy xonalari va boshqa xonalar qurilgan. Hovlilarning maydoni katta turarjoy egalari bog' qilib ekin ekkan. Xonalarga dahliz, terassalar katta ahamiyatga ega bo'lgan. Turar-joylar murakkabroq shaklga ega boshqa binolardan ajralib turadi. O'ziga yarasha qismlardan bo'linganligi hovli, xonalar bir butun kompozitsiyani tashkil qiladi. Turar joyning tashqi ko'rinishi turli xil ijtimoiy, tarixiy, etnik, tabiiy va iqlimiy omillar bilan chambarchas bog'liq. Masalan, birgina yozgi xonalarning o'nga yaqin turi mavjud va ma'lum. Bular — shiypon, ravon, ayvon, o'ng ayvon, ters ayvon, kayvon, soyavon, nimayvon va hokazolardir. (3-rasm)



O'rta Osiyo o'zining boy arxitekturasi bilan ajralib tursa, Koreya, Yaponiya, Baku shaharlarida o'zining ananaviy arxitekturasi kompleksini ko'rish mumkin.

Chet el tajribasi: Koreyada 2001 yilda konservatsiya loyihasi boshlangan, 2005 yilga kelib Bukchondagi 947 uydin 358 tasi ro'yxatga olindi, jami 224 xanokka ta'mirlash yoki qayta qurish uchun aholiga subsidiya berilgan va 116 ta uy egalariga kredit berilgan. (rasmbor). Bukchonda kichik xiyobonlar soylar bo'ylab cho'zilgan. Turar-joy binolari yonida bo'lgan xiyobonlar bolalar yugurib o'ynashi, qo'shnilar birlari bilan ko'rishish uchun shinam maskan bo'lgan. Xiyobon haqiqatan ham barcha aholi uchun umumiy sayr qilish joyi hisoblangan. O'tmish xotiralarini o'zida jamlagan Bukchon xiyobonlari Seul tarixini aks ettiruvchi manzara sifatida hamon o'z qiymatini yuqotmagan.

1999 yilda Koreyada "Shahar markazini boshqarish rejasi" ishlab chiqilgan. Bukchonni jonlantirish va uni o'ziga xos jozibasi bilan turar-joy maydoniga aylantirish uchun turli davlat investitsiya vositalari taklif qilingan. Uylarni ta'mirlash uchun moliyaviy yordam, imtiyozlar ba'zi uylarni davlat o'z muhofazasiga olgan. Uy egasi o'z uyini ta'mirlash uchun moliyaviy yordam olishi, shuningdek, mulk solig'i bo'yicha chegirma olishi mumkin bo'lgan. Shu tariqa shahar hokimiyati Bukchon shahridagi tanlangan ko'chalarda obodonlashtirish ishlarini olib borgan. Tarixiy shaharda kabellarning ta'siri sezilarli bo'lganligi uchun ko'chalar er osti kabel yotqizish ishlari amalga oshirilgan.

Uylarda Bukchon madaniyat markazi ochildi, tashrif buyuruvchilar uchun Bukchonning an'analari bilan tanishish uchun ko'rgazmalar zali o'z tarixlari va qadriyatlariga oid materiallar hamda videoroliklar namoyish etiladi.

Markazda turli madaniy meros haqida ma'lumotlar, uylar bo'ylab bo'ylab sayohatlar, shuningdek, ko'rgazmalar, musiqa kontsertlari, boshqa madaniy tadbirlar



va an'anaviy xalq rasmlari, choy marosimi, an'anaviy koreys qog'oz san'ati va musiqani o'rgatish maqsadida an'anaviy madaniyat darslarini taqdim etiladi. Bunday say harakatlar tarixiy-madaniy qadriyatni saqlash va turizm qiymatini yaratishga o'z hissasini qo'shadi

Bukchondagi moddiy va nomoddiy madaniy meros yaxshi taranib, mamlakatimiz va xorijdagi ommaviy axborot vositalarining Bukchondagi o'zgarishlarga qiziqishi ortib bormoqda. Bukchon Seulning asosiy turistik diqqatga sazovor joyiga aylanganligi sababli tashrif buyuruvchilar va sayyohlar soni doimiy ravishda o'sib bormoqda. 2012-yilda Madaniyat, sport va turizm vazirligi tomonidan o'tkazilgan xalqaro tashrif buyuruvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rov shuni ko'rsatdiki, Bukchonga xorijlik mehmonlarning 9,1 foizi tashrif buyurgan, bu NKO va Namsan tog'idagi Xanok qishlog'idan keyin uchinchi eng yuqori ko'rsatkichdir. Xususan, mart-iyun oylarida kelayotgan sayyohlarning 11-12 foizi Bukchonga kelgan. Jami tashrif buyuruvchilarning 1,2 foizi Bukchon Koreyadagi sevimli joy, deb javob berdi.

Har bir millatning o'zining arxitektura tarixini saqlab qolish uchun oz imkiniyatini safarbar qilgan bunday ishlarni amalga oshirish shubhasiz har tomonlama manfaatli ishlar sirasiga kiradi.

Koreaning bunday joylarida ko'plab teledasturlar va filmlarni suratga olishadi, chunki u Josen sulolasidan to zamonaviy davrgacha bo'lgan turli xil uylar, noyob tarixiy va madaniy qadriyatlarni o'z ichiga olgan. Bunaday loyihalar xorij mamlakatlari qiziqishini ortirmoqda. "Bukchon" loyihasi 2009-yilda YUNESKONing Osiyo-Tinch okeani merosi mukofotiga sazovor bo'ldi. Bukchon Seulning asosiy sayyohlik joyiga aylanganligi sababli tashrif buyuruvchilar va sayyohlar soni doimiy ravishda ortib bormoqda. (4-rasm)



2011-yil noyabr oyida Seul hukumati tomonidan 2000 ga yaqin chet ellik mehmonlar o'rtasida o'tkazilgan so'rov shuni ko'rsatdiki, Bukchonning tor ko'chalarini o'rganish ularning Seuldagi to'rtinchi sevimli mashg'uloti bo'lgan.

Koreyaning tarixiy maskanini ko'rish uchun taxminan 2-3 soatlik piyoda sayohati mavjud. Bukchon an'anaviy madaniyat markazi, Seul nomoddiy madaniy meros markazi muzeylar, san'ati muzeylari va boshqa muzeylar joylashgan. Bukchon shahrida 600 yildan ortiq tarixga ega bo'lgan ko'plab uylar, madaniyat markazlari, mehmonxonalar, restoran va choyxonalar sifatida faoliyat yuritib, tashrif buyuruvchilarga an'anaviy koreys madaniyati bilan tanishish, o'rganish imkoniyatini taqdim etadi.

An'anaviy yapon qishlog'i. Kioto mintaqasining markazida Kayabuki no Sato, tog'li hududda o'ziga xos eski qishloq, tarixga boy va yam-yashil tabiat hududda joylashgan "Somon tomlil qishloq" deb nomlanadi. Baland tog'lar va tiniq daryolar bilan o'ralgan an'anaviy somon uylaridan iborat kichik qishloqdir. Deyarli butun qishloq eski somon uylaridan iborat bo'lib, madaniy meros ob'ekti sifatida ehtiyotkorlik bilan saqlanadi. Qishloqda o'tmishga sayohat qilish va qadim Yaponiya qishloqlari muhitini his qilish mumkin.

Afsuski, bu ularning aksariyatiga kira taqiqlanadi. Aholisi asosan keksa dehqonlar, duradgorlar va kamtarona hayot kechiradigan tom quruvchilardir. Ammo bu uylarga sayyohlar kutib olinmaydi, degani emas. Sayohatchilar uchun bir nechta restoran, mehmonxona va suvenir do'konlari tashkil etishgan. Bundan tashqari, o'ziga xos chiroyli ko'rinishini taqdim etadigan zamonaviy menyuga ega bir nechta kafelar mavjud.

Somon tomlari bu aholi punktining o'ziga xos jihatlaridan biri bo'lib, u erda 50 ta uydin 40 tasi yozda sug'orishni talab qiladigan somonli tomga ega. Bunday qishloq



16-asrdan beri ma'lum, so'nggi yarim asrdan beri barcha o'zgarishlar nazorat qiluvchi davlat organlarining ruxsati ostida amalga oshiriladi. Yaponiyada bu an'anaviy uylar qishmog'i uchtalikdagi biri. O'zining asl qiyofasini saqlab qolgan qishloqda qadimgi Yaponiya atmosferasi hukm surmoqda. Tomlari somonli uylar juda yaxshi saqlangan. 1993 yilda qishloq atrofdagi o'rmonlar va sholi dalalari bilan birga Yaponiyada an'anaviy arxitektura qo'riqxonasi ro'yxatiga kiritilgan. Bunday qishloq eng ko'p sayyohlar tashrif buyuradigan diqqatga sazovor joy.

Qishloqda hamma uylar turar joy uylar hisoblanadi. Agar somonli uylarni ichkaridan ko'rishni istovchilar, u yerdagi xalq muzeyiga tashrif buyurishi mumkin. Uylardan birini muzey qilib tashkillashtirilgan, bu uy Yaponiyadagi an'anaviy qishloq uylarini joylashuvi, uy tuzulishi, funksional bog'lanishi, interyer qismi, urf odatlari haqida ma'lumot beradi. Muzey interyeridagi oshxo'a qismida "Ikki o'choqli" pechka ko'rish mumkin bu esa yaponiy amadaniyatidan namuna hisoblanadi. Ovqatlanish xonasining pol qismida o'choq choylashtirilgan. Bunday joylashtirilgan ochoq butun oila ovqatlanish uchun g'igilgan. Samarqanddagi sandallalarni eslatadi bunday manzara bizning ma'lum bir odatlarimiz bir biriga o'xshab ketishiga bir dalildir.

Muzey uy ikki qavtadan iborat ikkinchi qavat texnik qavat, Yaponiyadagi bunday uylarda deyarli mixlardan foydalanmasdan qurilgan. Ikkinchi qavatdan yapon xalqi to'quvchilik, hunarmandchilik ustaxonasi sifatida foydalanishgan. Tom yopmada mix ishlatishmasligi bizning yogochli ustunlarimizni eslatadi, chunki ustunlarimizda hech qanday mix ishlatililmagan.

Muzeyga tashrif buyurishdan tashqari, qishloqning ko'chalari bo'ylab sayr qilish, toza tog' havosidan va ajoyib tabiiy landshaftlardan bahramand bo'lish mumkin shuningdek, tabiiy mahalliy oshxonalar taomlaridan tatib ko'rish imkoni mavjud. "Somon tomli qishlog" punktlarida yashovchi yaponiyaliklar daromadining asosiy qismini turizm biznesi hisoblanadi. Kafelar, suvenirler do'konlari, muzey, turli xil



do'konlar. Yaponiyaning ushbu tog'li qishloqlarining ba'zi aholisi sayyohlarga o'z xonalarni ijaraga berishadi. Uy menmonxonasi sifatida o'z uylaridan foydalanishadi. Chet el fuqarolari bu joyga qiziqishlari baland sababi tabiiy iqlim sharoiti bilan chanbarchas bog'langan, ayniqsa somonli tomlari tabiat bilan uyg'ublashib bir yaxlit muhitni tashkil etadi. Qishloq bo'ylab sayr qilib, atmosferadan va tog'lar shukuhidan, somonli tomlarning hayratlanarli manzarasidan bahramand bo'lish mumkin.

Qishloq estetik va tabiiy manzarani saqlab qolish uchun 60 dan ortiq purkagichlar o'rnatilgan. 2000-yilda qishloqdagi muzey yong'inda yonib ketganidan so'ng, yiliga ikki marta suv purkagich tizimini sinovdan o'tkazish uchun purkagichni tekshirib ko'rish maqsadida ishlatib ko'rishadi.

Ushbu tekshuruv maqsadidagi sinovlar sayyohlar orasida shu qadar mashhur bo'ldiki, suv shlangi festivaliga aylandi. Har yili may va dekabr oylarida sayyohlar suv favvorasini tomosha qilish uchun qishloqqa kelishadi. Quyoshli kunlarda hatto uy ustida kamalatlarning paydo bo'lishini tomosha qilish mumkin, bu joyning o'ziga xosligiga aylangan. Sanalar har yili o'zgarib turadi, shuning uchun tashrif buyurishdan oldin rasmiy veb-saytdan aniqlashtirib kelish mumkin.

Hududni kopincha sayyohlar gavjum bo'lishadi, agar tinchlikda xoxlovchilar olomondan qochish uchun bu erga erta tongda kelishni yoki kunning kechroq tashrif buyurishini tavsiya qilishadi. Qishloqning haqiqiy atmosferasini his qilishni istaganlar, ertalab yoki kech tushgan vaqtda kelishsa haqiqiy tarixiy manzarani guvohi bo'lishadi. Qishloqdagi turar-joylardan birida hehmon bo'lib qolish qishloq hayotining eng haqiqiy muhitini his qilishga imkon beradi.

Guruch dalalari va o'rmonlar bilan o'ralgan Kioto viloyatidagi Kayabuki no Sato qishlog'i 1993 yilda "An'anaviy arxitektura qo'riqxonasi" deb nomlangan. (5-rasm)



Bakudagi eski shahar (Icheri Sheher) Icheri Sheher Ichki shahar, qal'a yoki "eski" shahar, qadimiy turar joy mahallasi. Ozarbayjon poytaxtidagi tarixiy-me'moriy qo'riqxonasi, "Icheri Sheher" qismi bronza davrida ham, eramizning I asrida ham odamlar istiqomat qilishgan. Boku kichik port shahri bo'lgan. Qulay iqlimi va qulay joylashuvi bilan tabiiy dengiz portiga yalangan. 8-15 asrlarda savdo, hunarmandchilik jadal o'sib borgan shuning uchun hukmdor Shirvonshoh qarorgohini shu yerga ko'chirtirgan. Shaharni mustahkamlash maqsadida qal'a devorlarini qurishni va xandaq qazishni buyurgan. Bokuning shahrining bu qismida savdo sotiq rivojlangan. Atrofi yaxshi saqlanib qolgan istehkomlar bilan o'ralgan bo'lib, u eng qadimiy qismi, diqqatga sazovor joyi hisoblanadi. Qo'riqxonada joylashgan 221 ming m² maydonda 1300 dan ortiq oila yashaydi (6-rasm).

Samarqand misolida aytadigan bo'lsak eski shahar qismidagi uylar bizning qadim arxitekturamiz namunasi hisoblanadi. Qurilgan uylarni restavratsiya, rekonstruksiya yoki konservatsiya qilish natijasida me'morchiligimizning yuqolib borayotgan o'ziga xos jihatlarini saqlab qolgan bo'lamiz. Bunday ishlar nafaqat kelajak avlodga o'z tarixini namoyon etish bilan birga mamlakatimizga kelagidan sayyohlar uchun ham ma'daniyatimizga qiziqish imkoniyatini yaratib beradi. Har bir uy, ko'cha Samarqand me'morchiligini yaqol namoyot etadigan muhitni yaratish oldimizdagi maqsad hisoblanadi.


Samarqanddagi so'zangaron ko'chasi misolida ko'radigan bo'lsak bunday ko'chalarning arxitekturaviy muhitini yanaga rivojlantirish. Tarixdan bilamizki har bir uyda hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullanishgan hozirgi davrda mahallalardagi uylarni darun, berun, ishlab chiqarish, hunarmandchilik sohasiga bo'lib loyihalash Samarqand turar joy uylari bilan tanishish imkoniyatini yaratib beradi. Ananaviy uylardan ko'p sohalarda ish olib borsa bo'ladi. Shu tariqa tarixiy muhitni saqlab qorish imkoniyati oshadi.



Xulosa: Samarqand ko'chalari muhitini yanada rivojlantirib, milliy arxitekturamizni har tomonlama namoyon etish lozim. Bunday ishlarni amalga oshirish manaviy, ma'daniy, iqtisodiy taraflama ham foydali ishlar hisoblanadi. Har bir xonadon egasi o'zining oilaviy layoqatidan kelib chiqqan holda hovlisidan unumli foydalansa bo'ladi Misol tariqasida nonvoylik, kulolchilik, zarduzlik, hunarmandchilik ishlarini uyidan bajarib shu mahalla muhitini yanada boyitishga yordam beradi. Bunday tashkil etilgan mahalla uylarida chet el fuqarolari beetibor qoldirmaydi.




1-rasm. Sopollitepa



204. Джембос-кала. Реконструкция С. П. и Н. П. Толстовых.

2-rasm. Xorazmdagi Jonboz kal'a





3-rasm. Buxoro turar joy uyi



4-rasm. Korea. Seul(Bukchon



5-rasm.Yaponiya. Kayabuki no Sato

6-rasm. Boku. (Icheri Sheher)



7-rasm. Samarqand. So'zangaron ko'chasi



8-rasm. Samarqand ko'chalari



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O’rta Osiyo me’morchilik tarixi” Axmedov. M.Q
2. “Arxitekturnie pamyatniki zarafshanskiy dalini” Zahidov.P 1985
3. “Tarixiy markazlarni qayta tiklash“ Aymatov.A.A O‘quv qo‘llanma
4. <file:///C:/Users/user/Desktop/hanok-village-things-to-do-Bukchon-Hanok-Village-seoul-korea.webp>
5. <https://thesoulofseoul.net/bukchon-hanok-village-see/>
6. https://en.wikipedia.org/wiki/Bukchon_Hanok_Village
7. <https://nv.chamber.uz/uzk/news/376>
8. Sindarovich, U. A., Dilnoza, Q., & Fayzullo o'g'li, B. A. (2023). National Traditions of Interior Architecture of Buildings of Wedding Houses. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 4(3), 1-7.
9. Uralov, A., & Baxodirov, A. (2023). *The History and Significance of the Construction of Hydrotechnical Constructions in Uzbekistan in the middle Ages (Example of Abdullakhan Bandi)*. Published in [International Journal of Trend in Scientific Research and Development \(ijtsrd\)](#).